

ONOMASTIK BIRLIKLARNI LINGVOKULTUROLOGIK TALQINDA TADQIQ ETISHNING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Qurbonova Mohigul To‘raqul qizi,
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada onomastik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni aks ettirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: onomastik birliklar, lingvokulturologik xususiyat, ilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika.

Annotation. This article scientifically and theoretically elucidates the linguocultural features of onomastic units, as well as their role in reflecting the interrelation between language and culture.

Keywords: onomastic units, linguocultural features, linguistics, cultural studies, ethnography, psycholinguistics.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически освещены лингвокультурологические особенности ономастических единиц, а также их роль в отражении взаимосвязи языка и культуры.

Ключевые слова: ономастические единицы, лингвокультурологические особенности, языкознание, культурология, этнография, психолингвистика.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat kommunikativ aloqa vositasi sifatida emas, balki milliy madaniyatni aks ettiruvchi tizim sifatida o‘rganish tamoyili kuchayib bormoqda. Ushbu jarayonda tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, til birliklarida ifodalanuvchi xalqning milliy madaniyati, tarixiy tajriba va dunyoqarashini tadqiq etishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqning ijtimoiy-madaniy holati, milliy mentalitetini o‘zida aks ettiruvchi birliklardan biri atoqli otlar hisoblanadi. Shu sababli, atoqli otlarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi hisoblangan onomastika sohasi lingvokulturologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki atoqli nomlar tasodifiy tanlangan belgilar emas, balki muayyan madaniyatga xos belgilarni o‘zida jamlagan til birliklaridir. Shu boisdan, onomastik birliklarni lingvokulturologik yo‘nalishda tadqiq etish milliy o‘zlikni anglash va madaniy xotirani tiklashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan tilshunoslik uchun muhim tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

XX asrning 90-yillarida tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqqan antroposentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan sohalardan biridir. Lingvokulturologiya lotincha *lingua* – til, *cultura* – ishlov berish, yunoncha *logos* – ta’limot so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lib, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohaslarining kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan, “tilning madaniyat, etnos, milliy mentalitet bilan o‘zaro aloqasi va ta’sirini o‘rganuvchi antroposentrik paradigmaning mustaqil yo‘nalishi hisoblanadi” [1].

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikdagi mustaqil soha nomi sifatida “lingvokulturologiya” termini V.N.Teliya boshchiligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida vujudga kelgan [2]. Shuningdek, o‘zbek

tilshunosligida olimla tomonidan ushbu terminning muqobili sifatida “lingvomadaniyatshunoslik” termini qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ikki termin ayni bir ma‘noni ifodalash uchun xizmat qilib, biri xalqaro miqyosdagi termin bo‘lsa, ikkinchisi, milliy tilimizdagi muqobil variant hisoblanadi.

Bugungi kunda lingvokulturologiya sohasi jahon tilshunosligida jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda ko‘plab chuqur tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu ishlarda olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar va kodlar, pretsedent birliklar, intertekstual aloqalar, til ongining xususiyatlari hamda barqaror lingvomadaniy birliklar kabi masalalarga katta e‘tibor qaratilganligi kuzatiladi. Tadqiqotlarda tilning turli sathlari, ayniqsa, so‘z va matn birliklarining yangicha talqini va tahlili ustuvor o‘rin egallaydi. Mazkur jarayon natijasida til birliklari faqat lingvistik qonuniyatlardan doirasida emas, balki jamiyat, inson omili, madaniyat, ruhiy holat hamda milliy mentalitet bilan bog‘liq jihatlarni nuqtayi nazaridan ham o‘rganila boshlandi. Bu esa tilshunoslikda yangi ilmiy qarashlar, yondashuvlar va prinsiplarning shakllanishiga zamin yaratdi. O‘zbek tilshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlar asarlarida ham til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi masalasi turli darajada ta‘kidlangan.

Boshqa bir qator til birliklari kabi atoqli otlarni ham lingvokulturologik aspektda o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, atoqli otlarning shakllanishida lisoniy omillardan ko‘ra nolisoniy omillarning muhim rol tutishi ko‘plab olimlar tomonidan ilgari surilgan. Ma‘lum bir turdagi atoqli otni struktur-semantik jihatdan tadqiq etishda uning tub ma‘nosi, kelib chiqishi haqidagi axborotlarni to‘plash uchun ekstralingvistik omillarni hisobga olmaslikning imkoni yo‘q. Onomastik birliklar o‘zi nomlayotgan predmet haqidagi tarixiy, madaniy, etnografik, geografik, sotsiologik axborotlar majmuasini ifodalaganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, onomastik birliklarni lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish til va madaniyatning o‘zaro aloqalarini ko‘rsatib berish uchun qimmatli ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada nomshunos olim E.Begmatov ta‘kidlaganidek, “antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog‘liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo‘lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma‘naviy va etnik qarashlari o‘z ifodasini topganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy, maishiy turmushi bilan bog‘liq ekanligi”ni hisobga olsak, onomastik birliklarni lingvokulturologik aspektda o‘rganish tilshunosligimiz uchun muhim ishlardan biri sanaladi [3].

Onomastik birliklarni lingvomadaniy xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etish, bir tomondan, “onomastik materialni tilning shakllanishida madaniyatning ishtiroki nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga, shuningdek, tilning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan ajdodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasining davrlar silsilasida saqlovchisi va xazinasini sifatidagi vazifasini qanday amalga oshirishini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchi

tomondan, tilning ma'naviy madaniyatning shakllanishiga qay darajada ta'sir etishini ochib beradi, shaxsning madaniyat tashuvchisi sifatidagi mentaliteti va ehtiyojlarini aks ettiradi" [4].

Onomastik birliklarni lingvokulturologik tadqiq obyektini sifatida bir qancha yo'nalishlarda o'rganish imkoni mavjud. Xususan, hozirgi kunga qadar onimlarda quyidagi lingvokulturologik aspektlarda tahlil ishlari olib borilganligini ko'rishimiz mumkin:

1. Onomastik birliklarni ma'lum bir lingvomadaniy kodlarning ifodalovchisi sifatidagi tahlili.

Zamonaviy fan-tehnika rivojlanayotgan hozirgi kunda ko'pgina sohalarida kod atamasi faol qo'llanilmoqda. Aytish mumkinki, "kod so'zi insoniyatning qadim tarixida shu shaklda qo'llanilmagan bo'lsa-da, biroq insoniyat tafakkurining izchil rivoji natijasida borliqni anglash, voqelikni idrok etish tamoyili shakllangach yuzaga kelgan"[5:48] va insonning olamni anglash jarayonidagi tasavvurlarining tafakkurdagi muayyan qoliplashgan tizimidir.

Boshqa sohalar kabi madaniyatshunoslik hamda lingvokulturologiyada ham madaniy va lingvomadaniy kodlar tushunchasi mavjud bo'lib, bu terminlar xususida ko'pgina olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Madaniy kod deganda, D.Xudoyberganova ta'rifi bilan aytadigan bo'lsak, "insonning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning shakllari" [6] deb aytish mumkin.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda lingvomadaniy kodlar tushunchasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. "Lingvomadaniy kodlar madaniy kodlarning bir turi bo'lib, uning verballashgan ko'rinishidir" [5:52]. Jahon tilshunosligida V.N.Teliya, V.V.Krasnix, D.B.Gudkov, M.L.Kovshova, F.N.Gugeklova, K.Rapay, V.M.Savitskiy, N.R.Oynotkinova, Z.K.Sabitova, G.A.Avanesova, I.A.Kupsova, G.N.Kenjebalina, G.X.Buxarova, V.A.Maslova, J.V.Krasnobayeva – Chyornaya kabi olimlarning tadqiqotlarida lingvomadaniy kodlarga oid ilmiy izlanishlarni ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishdagi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova, S.Ikromova, F.Usmonov, F.Musayeva, Sh.Turdiqulov, Z.Muqimova kabi o'zbek olimlarining maqola va dissertatsiyalarida lingvokulturologiya sohasi hamda o'zbek tilidagi lingvomadaniy kodlar tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalarni uchratishimiz mumkin.

Onomastik birliklarni lingvokulturologik aspektda tahlil qilishda ham lingvomadaniy kodlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. "Ma'lum bir xalq onomastik ko'lami uning tarixi, madaniyati, estetik qarashlari, ruhiyatini o'zida jamuljam etgan ko'pqirrali hodisa" [7:132] ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, onomastik birliklar lingvomadaniy kodlarni tashuvchi va uzatuvchi muhim vosita sifatida xalqning madaniy xotirasini saqlash va avloddan avlodga yetkazishda alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan onomastik birliklarni

lingvomadaniy kodlarni ifodalashiga ko‘ra tahlil etish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada o‘zbek tilshunoslaridan D.Xudoyberganova, Sh.Turdiqulovlarning tadqiqotlari ahamiyatlidir. Xususan, D.Xudoyberganova “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini” nomli doktorlik dissertatsiyasida madaniy kodlar haqida bir necha o‘rinlarda fikrlar bildirib o‘tadi. Unga ko‘ra, olima onomastik birliklarni madaniyatning etnomadaniy axborot tashuvchi unsuri sifatidagi onomastik kod vazifasini bajara olishini e‘tirof etadi [7:130]. Shuningdek, onomastik birlik hisoblangan pretsedent nomlar to‘g‘risidagi mulohazalarida “... mohiyatan ko‘p qirrali va ko‘p vazifali lingvomadaniy birlik ekanligi, hatto u butun bir millatni ifodalovchi madaniy kod vazifasida ham namoyon bo‘la olishi” ta‘kidlanadi [7:133]. Olimaning lingvomadaniy kodlar haqidagi batafsil fikrlari uning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida nashr etilgan “Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini” [8] nomli maqolasida hamda “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” [6:29] va “Zamonaviy tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati”da [9] ham o‘rin olgan. Ularda lingvomadaniy kodlar haqida jahon tilshunoslari tomonidan berilgan ta‘riflar hamda ularning turlari: biomorf kod, vaqtga doir kod, makoniy kod, ma‘naviy kod, predmetli kod, somatik kod kabilar izohlangan.

Onomastik birliklarning lingvomadaniy kodlarni ifodalashiga ko‘ra tahlili Sh.Turdiqulov tomonidan ham amalga oshirilgan [10:124]. Uning “Lingvomadaniy kodlarning onomastik birliklarda ifodalanishi” nomli tadqiqot ishida atoqli otlar, xususan, Surxondaryo viloyati hududidagi toponimlar guruhiga kiruvchi teotoponimlar (“madaniy-diniy, e‘tiqodiy asosga ega hudud nomi”)da [10:22] lingvomadaniy kodlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra tahlilini amalga oshirgan. Unga ko‘ra, olim lingvomadaniy kodlar haqida fikr bildirar ekan, bu xususda turli olimlarning fikrlarini keltirib o‘tadi. Jumladan, “V.I.Shaxovskiy [11] fikricha, “lingvomadaniy kod tarkibiga olam etnik manzarasi, jamiyatning tarixiy shakllanishini ifodalovchi milliy stereotiplar, an‘analar, did, saviya, baholash darajasi, madaniy qadriyatlardan tarkib topuvchi lingvomadaniy dunyoqarash birliklari kiradi”.

Shuningdek, Sh.Turdiqulov tadqiqotida teotoponimlarning derivatsion ko‘lami, ulardagi lingvomadaniyatga doir kodlarni aniqlashda lisoniy omillar bilan birga nolisoniy omillar, xususan, ziyoratgohlar va u yerlarda o‘tkaziluvchi aqidavoy marosimlarning kelib chiqishi hamda teotoponim paydo bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kult omili masalasi, ularning motivlanganlik va motivlanmaganlik belgilari kabi bir qator masalalar yuzasidan tahlil ishlarini amalga oshirgan [10].

Shuni ta‘kidlash joizki, lingvomadaniy kodlar onomastik birliklar tarkibida turli qatlamlar — etnomadaniy, tarixiy, diniy, mifologik, ijtimoiy va estetik yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, antroponimlar orqali jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, e‘tiqodiy qarashlar hamda lisoniy shaxs modeli aks etsa, toponimlar makonning tarixiy-madaniy xotirasi, etnik tarkibi va tabiat bilan bog‘liq tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi.

2. **Onomastik birliklarda lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishiga ko'ra tahlili.** Onomastik birliklarda tafakkur birligi hisoblangan konseptlarning ham o'ziga xos tarzdagi ifodalanish holatining guvohi bo'lishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslik birligi hisoblangan konsept termini nafaqat kognitologiyada, balki lingvokulturologiyada, psixolingvistikada ham eng faol qo'llaniluvchi terminlardan biri hisoblanadi. "Konsept" atamasiga turli olimlar tomonidan turlicha izohlar berilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, N.Y.Shvedova [12] quyidagicha ta'riflaydi: "konsept bu – tushuncha, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turadi" [7:130].

Hozirgi kunda til birliklarining konseptual tahlilida lingvokulturologik yondashuv keng ommalashmoqda. Zero, insonning mental faoliyati u yashab turgan borliq, milliy-madaniy muhit, mentalitet bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, o'zbek tilida muqaddas deb e'tirof etiladigan "oila" konsepti rus tilida umuman boshqa yo'sinda talqin etilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, til egalarining milliy-madaniy dunyoqarashi va qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu boisdan, lingvokulturologiya sohasida konsept atamasi "mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi" [9:39] sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqa til birliklari singari onomastik birliklarda ham turli talqindagi konseptlar ifodalanadi. Bu borada D.Yo'ldoshev onomastik birliklar doirasida konsept va tushunchaning o'zaro farqlarini quyidagicha izohlaydi: "Bizning xulosalarimizga ko'ra, konsept – atoqli ot anglatgan ma'no (obyekt) xususidagi umumiy tasavvur, tushuncha ana shu ma'nodan anglashiladigan xususiy tasavvur, har bir shaxs tafakkuridagi shakli. Masalan, Buxoro toponimi konsept sifatida juda keng tushunchalar majmuidir (viloyat, shahar, ko'cha va hokazo). Ana shu konsept asosida "Buxoroda ziyoratgohlar ko'p" jumlasidan kimdir Buxoro shahrida, kimdir Buxoro viloyatida ziyoratgohlar ko'pligini anglaydi. Haqiqatan, "tushuncha" so'zining umumiste'moldagi ma'nosiga nazar soladigan bo'lsak, bu termin obyekt haqidagi xususiy tasavvur, har bir shaxsning tafakkuridagi mahdud, chegaralangan qismni anglatishi ma'lum bo'ladi. Shu kabi mulohazalar konsept va tushuncha o'rtasidagi muhim farqlar quyidagilardan iboratligini qayd etishga imkon beradi: 1. Konsept atoqli ot haqidagi umumiy tasavvur, tushuncha – xususiy tasavvur. 2. Atoqli ot tilda konsept, nutqda tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. 3. Onomastik birliklar tahlilida atoqli otlar ko'pincha konsept sifatida tahlil qilinadi. Antropotsentrik tahlil imkon qadar konsept majmuiga kirgan ko'proq tushunchalarni qamrab olishi lozim" [13: 83-84].

Shu jihatdan olib qaralganda, konseptlar onomastik birliklarning semantik va lingvomadaniy mazmunini shakllantiruvchi asosiy kognitiv birliklar sifatida namoyon bo'lib, ular orqali atoqli otlarda mujassamlashgan tarixiy, madaniy, ijtimoiy va individual

tasavvurlar tizimi yoritiladi hamda har bir nutq egasining tafakkurida turlicha konkretlashuvchi tushunchalar majmuini yuzaga chiqaradi.

3. Onomastik birliklarning semantik tarkibida madaniy belgilarning aks etishi nuqtai nazaridan tahlil. Hozirgi kunda til birliklarini “til-inson-madaniyat” uchligi asosida tadqiq etish maqbul deb hisoblanadi va bunda tilning inson hayotidagi ahamiyati uning ijtimoiy, madaniy, etnik, tarixiy xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shu jumladan, onomastik birliklar ham xalq madaniyatining, ijtimoiy-tarixiy shakllanishining in’ikosi sifatida ushbu tadqiq obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Shu maqsadda, onomastik birliklarga lingvokulturologik nuqtayi nazardan yondashuvning asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil etadi: onomastik birliklar shakllanishida madaniyat ishtiroki qanday, onomastik birlik ma’nosining qaysi qismiga “madaniy mazmun” birikkan, til va madaniyat negizida shakllangan onomastik birliklar madaniy semantikasini qanday tavsiflash mumkin.

Natija va muhokama. Onomastik birliklarning lingvokulturologik tadqiqida ularning milliy-madaniy semantikasini izohlovchi, uning madaniy semalari va ularning lingvokulturologik hamda lingvistik ahamiyatini yoritib beruvchi tadqiqotlar ustunlik qiladi. Masalan, B.Nurmuhammedovning “Qo‘shrabot tumani toponimlarining struktur-semantik va lingvomadaniy tadqiqi” nomli ilmiy ishida Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanidagi toponimlarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning yasalishi, etimologiyasi hamda lingvomadaniy semantikasini tahlil qilgan [14:163]. Unga ko‘ra, olim toponimlarni lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq qilish, avvalambor, ularning lug‘aviy birliklarini ma’nolariga ko‘ra tahlil qilishni talab etishini ta’kidlaydi. Shuningdek, toponimlar til belgisi sifatida nominativ va semantik funksiyani bajarib, nominativ birlikni aks ettiruvchi toponimlar parallel ravishda obyektiv voqelikni ifodalaydigan tushuncha orqali madaniy kodlar yordamida ifodalanishi hamda toponimlar ma’nosining denotativ qismi onim anglatayotgan bir tipdagi realiya obrazi haqidagi bilimni saqlashi, qolaversa, realemani aniq bir referent bilan uzviyligini ta’minlashini turli misollar orqali tahlil qilib beradi. Masalan, tumandagi Qizil tumshuq oronimining o‘zagi tumshuq uzvi lisoniy ongda sxemani, ya’ni “turtub chiqib turish holati” obrazini gavdalantiradi, natijada “tumshuq” realemasi konkret referent, ya’ni tepalik (oronimi) bilan aloqasini ta’minlaydi [14: 43].

Onomastik birliklarning semantik tahlilida ularga tom ma’nodagi predmetga obrazli, mantiqan bo‘laklarga ajralmaydigan butunlik sifatida tavsif berish mumkin. Shuningdek, ba’zi onimlar murakkab strukturaga ega bo‘lib, ularning konnotativ ma’noga ega qismi juda muhim hisoblanadi. “Konnotatsiya atamasi lotin tilidagi “connotatio” so‘zidan olingan, u “birgalikda anglataman” ma’nosini ifodalaydi. Konnotatsiya til egalari tasavvuridagi birlamchi ma’no bilan turg‘un bog‘langan qo‘shimcha ma’noviy va uslubiy elementlarni qamrab oladi; nutqning hissiy va baho bo‘yoqlarini aks ettirish hamda jamiyatning madaniy urf-odatlarini ifodalashga qaratilgan; o‘zida predmet va voqealarning

o‘zini emas, ularga nisbatan muayyan qarashlarni aks ettiruvchi turli xil ko‘rinishdagi pragmatik axborotlarni ifodalaydi” [14:44].

4. Onomastik birliklarning pretsedent birlik vazifasidagi tahlili. Onomastik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlilida ularni pretsedent birlik sifatida tahlil qilish eng keng tarqalgan yo‘nalishdir. “Mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar pretsedent nomlar hisoblanadi. V.A.Maslovaning fikriga ko‘ra, muayyan millat vakillariga yaxshi tanish bo‘lgan matnlar yoki voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar bo‘la oladi. Masalan: *Oblomov, Taras Bulba* kabi” [1:53]. Ya’ni muayyan millatning milliy-madaniy, tarixiy, ijtimoiy-kundalik turmushida ma’lum bit voqea yoki vaziyatlar bilan insonlar xotirasidan muqim o‘rin olgan nomlarni pretsedent nomlar deb aytish mumkin. Bu turdagi nomlar eslanganda, so‘zlovchi xotirasida nom bilan bog‘liq voqea-hodisalar gavdalanadi va aynan shu xususiyat pretsedent nomning eng muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida Alpomish, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, To‘maris, Shiroq, Bobur, Alisher Navoiy, Cho‘lpon kabi nomlar muayyan tarixiy-madaniy voqelik ramzi sifatida millat xotirasidan muhim o‘rin tutadigan nomlar sanaladi.

Shuningdek, pretsedent nomlar tahlilida ularning allyuziv nom vazifasida qo‘llanilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bu xususda, D.Xudoyberganova quyidagicha ta’kidlaydi: “Pretsedent nomlarning funksional turlaridan biri bo‘lgan allyuziv nomlarga nomlar badiiyatida uslubiy figura sifatida qaralsa, lingvokulturologiyada ular ikki madaniy – semiotik maydonni o‘zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e’tirof etiladi. Bunda quyidagi ikki jihat e’tiborga olinmog‘i lozim: a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi va b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi” [7:135].

Xulosa. Onomastik birliklarning lingvokulturologik talqini ularning faqat nominativ vazifasini emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashi va mentalitetini mujassam etuvchi murakkab semantik va konseptual birliklar ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning umumiy tasnifi shuni tasdiqlaydiki, onomastik birliklar lingvokulturologik jihatdan bir necha asosiy aspektlarda o‘rganilgan: ularning milliy-madaniy semantikasi, konseptual mazmuni, lingvomadaniy kodlarni ifodalash xususiyati hamda badiiy matndagi estetik va pragmatik funksiyalari.

Antroponimlar, toponimlar va boshqa onomastik birliklar til egalarining ijtimoiy-madaniy tajribasi, qadriyatlar tizimi va stereotiplarini o‘zida aks ettiradi. Xususan, ular orqali makon va shaxsga oid tasavvurlar, milliy identifikatsiya, tarixiy voqelik va madaniy an’analar ifodalanadi. Shu jihatdan, onomastik birliklar lingvokulturologik tadqiqotlarda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие. – М: Academia, 2001. – С. 5.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya: Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 29.
3. Бегматов Э.А. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. –№ 3. – Б. 37.
4. Abdullayev A. Toshkent viloyati toponimlarining lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.fals.dok...diss. – Toshkent, 2024. – B.29.
5. Muqimova Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o'rni (o'zbek tili barqaror birliklari misolida): Filol.fan.dok...diss. – Toshkent, 2025.
6. Худайберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015. – Б.29.
7. Худайберганава Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фан.док....дисс. – Тошкент, 2015.
8. Худойберганава Д. Лингвокультурологияда маданий код тушунчаси ва талқини // Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 16.
9. Худойберганава Д. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B.13.
10. Turdiqulov Sh. Lingvomadaniy kodlarning onomastik birliklarda ifodalanishi: Monografiya. – Moldova: Globe edit, 2023.
11. Шаховский В.И. Литературный интекст как ключ к культурной памяти российского социума (на материале публикаций А.Минина) // Политическая лингвистика. – Екатеринбург. 2008. Вып. 2 (25). – С. 115-125.
12. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.
13. Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: монография. – Тошкент: Sharq, 2020. – 83-84.
14. Nurmuxammedov B. Qo'shrabot tumani toponimlarining struktur-semantik va lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.fals.dok...diss. – Samarqand, 2024. - 163 b.

NOKIY MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934